

## MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA TALAFFUZ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

*Isoqjonova D.M.*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari  
kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda maxsus ta'lim jarayonida talaffuz malakalarini shakllantirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish va mazmuni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** talaffuz malakalari, eshitish qobiliyatini rivojlantirish, kinestetik sezgilar, jumla hamda matn ustida ishlash.

**Аннотация:** В данной работе рассматриваются организация и содержание деятельности, направленной на формирование произносительных навыков у детей с нарушением слуха в процессе специального обучения.

**Ключевые слова:** произносительные навыки, развитие слухового восприятия, кинестетические ощущения, работа над предложением и текстом.

**Annotation:** This thesis discusses the organization and content of activities aimed at developing pronunciation skills in children with hearing impairments within the process of special education.

**Keywords:** pronunciation skills, development of auditory perception, kinesthetic sensations, work on sentences and text.

Kar o'quvchilar talaffuzga o'rganishlarida nutq organi harakati natijasida yuzaga keluvchi kinestetik sezgilar, shuningdek, eshitish va ko'rishga tayanishlari lozim. Kar o'quvchilarda to'g'ri talaffuzni shakllantirishda nutqiy materialni dastlab fonetik prinsip asosida tanlanishi, matnlar mazmuni o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi zarur. Dars davomida ish bo'g'in, so'z, jumla hamda matn ustida ishlash, mashq qilishdan boshlanadi. Yuqori sinflarda nutq materiali mazmunini chuqurlashtirish va bo'g'in bilan ishlash mashqlarini kamaytirish lozim. O'qitishda texnik vositalar, ya'ni ovoz kuchaytirgich apparatlardan va ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Kar bolalarning nutqini maxsus metod, uslublar yordamida, maxsus yaratilgan sharoitda rivojlantirish mumkin. Ma'lumki, eshituv qobiliyati me'yorida bo'lgan bolalarning so'zlashuv nutqi ilk va maktabgacha davrda jadal rivojlanib boradi. Keyinchalik maktabda so'zlashuv nutqi asosida bolalar ona tili fanini o'zlashtiradilar. Kar bolalar nutqini o'stirishda og'zaki, yozma, daktil nutqidan foydalaniladi. daktil nutq so'zli, nutqni idrok etishga hamda ta'limning dastlabki bosqichlarida nutqdan foydalanishga yordam beradi. Bolalar atrofdegilar bilan maxsus

nutq o'qirish, talaffuzga o'rgatish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va boshqa turdagi mashg'ulotlarda ham kun davomidagi faoliyatlarida muloqotda bo'ladilar. Karlarning og'zaki nutqini o'qirish yuzasidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning yana bir asosiy vazifasi kar o'quvchilarda mustaqil talaffuz ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga bo'lgan qiziqish ortishi uchun har xil tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etish samaralidir.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar maktablarida ona tili ta'limi bir-biriga uzviy bog'liq quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Ushbu bosqichda daktil nutqiga o'rgatish orqali atrof-muhit haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Bu bosqichda egallangan nutqiy zahira keyingi bosqich uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu davr kar bolalarni asosan savod o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2-bosqich. Ushbu bosqichda daktil nutq, og'zaki nutq va tovushga mos harf o'rgatiladi. Ushbu bosqich kar o'quvchilarning savod egallash jarayoni hisoblanib, har bir nutqiy materialning amaliy egallanishiga e'tibor qaratiladi.

3-bosqich. Bu bosqichda og'zaki nutq, harf va kerak paytida daktil nutqqa tayaniladi.

4-bosqich. Ushbu bosqich avvalgi bosqichlarning natijalarini o'zida namoyon qiluvchi bosqich bo'lib, unda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish ustuvorlik qiladi.

“Og'zaki so'zlashuv nutqini o'rgatish” bo'yicha o'quv jarayonida darslarda olib boriladigan ishlar tarbiyachi tomonidan davom ettiriladi. Dasturda o'quvchilarning internatdagi faoliyati, hayoti davomida qo'llanilishiga ehtiyoji bo'ladigan alohida nutq materiali berilgan bo'lib, ular darsdan keyin turli sharoit va vaziyatlarda tarbiyachi rahbarligi va nazorati ostida mustahkamlanib, rivojlantirilishi talab qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yjati:**

1. Mamarajabova Z.N. Korreksion pedagogika: eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarning nutqini rivojlantirishning pedagogik tizimi (ilmiy maqola). Toshkent: TDPU nashrlari, 2024.
2. Mamarajabova Z.N., Malikova X.I., Isoqjonova D.M. Ona tili o'qitish texnologiyasi. Darslik. – Toshkent 2023.
3. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 696 b.
4. Мамаражабова З. Н. ОБУЧЕНИЕ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ ГЛУХИХ УЧАЩИХСЯ ПЕРВОГО КЛАССА В СПЕЦИАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ СЕГОДНЯ Учредители: Олимп. – 2021. – №. 10. – С. 23-24.
5. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 9. – С. 26-28.